

YUQORI JAG‘ SINUS-LIFTINGIDA SINTETIK KOSTNOPLASTIK MATERIALLARNI QO‘LLASHNING KLINIK SAMARADORLIGI

Karegdiev Jasurbek Rayimkulovich

*Buxoro shaxar R.K.Dental xususiy stomatologiya shifoxonasi oliy toifali xirurg-
stomatolog*

Dental implantatsiya tish qatorining funksional va estetik tiklanishini ta'minlovchi samarali ortopedik usul hisoblanadi [1]. Biroq implantatlarni o'rnatish imkoniyati ko'p hollarda alveolyar suyak to'qimasining hajmi va sifati bilan cheklanadi. Ayniqsa, yuqori jag'ning yon bo'limlarida suyak atrofiyasi va yuqori jag' pazuxasining past joylashuvi implantatsiya uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qiladi [2].

Yuqori jag' pazuxasining pnevmatizatsiyasi hamda tishlarning uzoq muddat yo'qligi natijasida alveolyar o'simtaning rezorbsiyaga uchrashi implantat o'rnatish uchun yetarli suyak balandligini ta'minlamaydi. Shu munosabat bilan sinus-lifting operatsiyasi yuqori jag'da suyak hajmini oshirishga qaratilgan eng samarali jarrohlik usullaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda [3].

An'anaviy autogen suyak transplantatlariga muqobil sifatida so'nggi yillarda sintetik kostnoplastik materiallar klinik amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu materiallar kam invazivligi, ambulator sharoitda qo'llash imkoniyati va barqaror osteointegratsiyasi bilan ahamiyatlidir [1,3].

Materiallar va usullar

Tadqiqot yuqori jag'ning yon bo'limlarida alveolyar suyak to'qimasining atrofiyasi aniqlangan bemorlarda o'tkazildi. Barcha bemorlarda implantatsiyadan oldin suyak hajmini oshirish maqsadida ochiq sinus-lifting operatsiyasi amalga oshirildi. Kostnoplastik material sifatida beta-trikalsiyfosfat asosidagi sintetik preparat qo'llanildi.

Barcha bemorlarda operatsiyagacha klinik ko'rik, stomatologik statusni baholash va rentgenologik tekshiruvlar (ortopantomografiya va kompyuter tomografiya) o'tkazildi. Sinus-lifting operatsiyasi lateral kirish yo'li orqali bajarilib, yuqori jag' pazuxasi shilliq qavati ehtiyotkorlik bilan ko'tarildi va hosil bo'lgan bo'shliq sintetik kostnoplastik material bilan to'ldirildi. Yaratilgan zona kollagen membrana bilan izolyatsiya qilinib, jarohat qavatma-qavat tikildi.

Implantatlar sinus-liftingdan keyin belgilangan muddatlarda o'rnatildi. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlar dinamik ravishda kuzatildi.

Тадқиқот натижалар

Operatsiyadan keyingi erta davrda barcha bemorlarda umumiy holat qoniqarli bo'ldi. Yallig'lanish asoratlari, sinusit yoki transplantat rad etilishi holatlari qayd etilmadi. Jarohatlar birinchi taranglik bilan bitdi.

Rentgenologik tekshiruvlar natijasida sintetik material joylashtirilgan sohada suyak to'qimasining izchil shakllanishi aniqlandi. Material zarrachalari atrofida yangi suyak ko'priklari hosil bo'lishi kuzatildi. Implantatsiyadan keyin implantatlarning barqarorligi saqlanib, osteointegratsiya muvaffaqiyatli kechdi.

Мuhokama

Olingan natijalar beta-trikalsiyfosfat asosidagi sintetik kostnoplastik materiallarning yuqori osteokonduktiv xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Autogen suyak bilan taqqoslaganda, ushbu materiallar qo'shimcha donor jarohatini talab qilmaydi, operatsiya vaqti qisqaradi va ambulator sharoitda qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Sintetik kostnoplastik materiallar qo'llanilgan sinus-lifting operatsiyasi yuqori jag' implantatsiyasida ishonchli va barqaror klinik natijalarni ta'minlaydi. Ushbu usulni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алфаро Ф.Э. Костная пластика в стоматологической имплантологии. – М.: Азбука, 2016. – 236 с.
2. Болонкин И.В. Костная пластика аутотрансплантатами при дентальной имплантации // Клиническая стоматология. – 2010. – №3. – С. 35–36.
3. Лянг М. Синус-лифт: от закрытого синус-лифта до синус-имплант-стабилизатора. – Лвов: ГалДент, 2018. – 100 с.